

## FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALARNING MUHIM VAZIFALARI HAMDA OILADAGI PSIXOLOGIK MUHIT

*Matasimova Farzona Raxmatillaevna*

*Toshkent viloyati Angren shahar MMTBGA  
qarashli 25-umumta'lim maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada farzand tarbiyasida ota-onalarning asosiy vazifalari, oiladagi psixologik muhitning bola rivojlanishiga ta'siri hamda sog'lom tarbiya uchun zarur shart-sharoitlar yoritiladi. Shuningdek, ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi va oilaviy muhitning farzand shaxs sifatida shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** oila, ota-ona, tarbiya, psixologik muhit, bola, rivojlanish, muloqot.

### KIRISH

Farzand tarbiyasi — ota-onaning eng muhim va mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bola shaxs sifatida, avvalo, oila muhitida shakllanadi. Shu sababli oiladagi psixologik muhit va ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi farzandning kelajakdagi hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning asosiy vazifalaridan biri — mehr-muhabbat va e'tibor berishdir. Bola o'zini sevib-ardoqlangan his qilsa, unda o'ziga ishonch va ijobiy munosabat shakllanadi.

Ikkinchi muhim vazifa — to'g'ri tarbiya usullarini qo'llash. Haddan tashqari qattiqqo'llik yoki ortiqcha erkalatish bolada salbiy xulq-atvorni shakllantirishi mumkin. Shu sababli muvozanatli yondashuv zarur.

Muloqot madaniyati ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning asosidir. Ota-onalar farzandini tinglashi, uning fikrini hurmat qilishi kerak. Ota-onaning yana bir muhim vazifasi — namuna bo'lish. Bola ko'proq ota-onaning xatti-harakatlarini kuzatib, ulardan o'rnak oladi.

Oiladagi psixologik muhit farzand rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Sog'lom psixologik muhit mavjud bo'lgan oilada bola o'zini xavfsiz va erkin his qiladi. Aksincha, nizolar va ziddiyatlar mavjud muhit bolaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Doimiy tortishuvlar bola ongida qo'rquv va xavotirni kuchaytiradi.

Shuningdek, ota-onaning farzandga nisbatan munosabati uning o'zini baholashiga ta'sir qiladi. Qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bolaning rivojlanishini tezlashtiradi.

Ota-onalar farzandining yosh xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Har bir yosh davrida bolaning ehtiyojlari va psixologik holati o'zgarib boradi.

Zamonaviy sharoitda ota-onalar axborot texnologiyalaridan foydalanishni nazorat qilishi ham muhim. Bu bola psixologik sog‘lig‘ini himoya qilishga yordam beradi.

Farzand tarbiyasida ota-onalarning roli beqiyosdir. Sog‘lom psixologik muhit, to‘g‘ri yondashuv va mehr-muhabbat asosida tarbiyalangan bola barkamol, o‘ziga ishonchli va jamiyatga foydali shaxs bo‘lib yetishadi.

Oilada ota-onalar ma‘naviy yetuk, e‘tiborli va yuqori saviyali bo‘lsalar, shu darajada mukammal usullar orqali o‘z farzandlarini tarbiyalaydilar. Buyuk ma‘rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikrlari bir asr avval qanchalik dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Farzand oilada tug‘iladi va hayot haqidagi ilk bilim hamda ko‘nikmalar aynan shu muhitda shakllanadi. Oila — hayotning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-odatlarini asrab-avaylaydigan va kelajak avlodning qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan muhim tarbiya o‘chog‘idir.

Ota-onaning asosiy vazifasi — oilada sog‘lom moddiy va ma‘naviy muhitni yaratish, farzandga to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya berish, uning ehtiyojlarini qondirish hamda kasb-hunarga yo‘naltirishdan iborat. Buning uchun ota-onalar zarur pedagogik bilimlarga ega bo‘lishlari lozim. Pedagogik bilimlar deganda farzand tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tibbiy va psixologik bilimlar majmui tushuniladi.

Pedagogika fanlari doktori, professor Muhammadjon Qur'onov “Bola baxtli bo‘lsin desangiz...” nomli asarida shunday ta‘kidlaydi: bola boqish oson, ammo uni tarbiyalash murakkab jarayondir. Agar ota-ona farzand tarbiyasiga yetarlicha e‘tibor qaratmasa, bu vazifani boshqalar bajaradi va natijada bola kim tarbiyalasa, o‘shaning ta‘sirida shakllanadi. Tarbiya esa albatta bilim va mas‘uliyatni talab qiladi.

O‘zbek oilalarida tarbiya an‘anaviy ravishda kattaga hurmat, kichikka izzat kabi insoniy fazilatlarga asoslanadi. Oilaviy vazifalar farzandlar o‘rtasida adolatli taqsimlanadi. Ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, saxovatlilik va qo‘ni-qo‘shnichilik qadriyatlari muhim o‘rin tutadi. Ammo zamonaviy hayot sharoitida bu an‘analarning ayrimlari sekin-asta susayib bormoqda.

Bugungi kunda bolalar ko‘proq vaqtini uyda, mobil telefon, planshet va kompyuter qarshisida o‘tkazishni afzal ko‘rmoqda. Ota-onalar esa ko‘pincha bandlik sababli farzand tarbiyasiga yetarlicha vaqt ajrata olmayapti. Natijada ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy kontentlar bolalarning xulq-atvoriga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu esa bolalarda ruhiy zo‘riqish, ijtimoiy yakkalanish, nutq rivojlanishining sekinlashuvi hamda real va virtual olamni farqlay olmaslik kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bola shakllanishida ikki asosiy muhit — oila va maktab hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, turkiy xalqlarda oila, maktab va mahalla hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u shaxsda jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy va umuminsoniy sifatlarni shakllantiradi. Tarbiya jarayoni uzluksiz bo'lib, har bir bolaga individual yondashuvni talab etadi.

Pedagogikada tarbiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, u faqat oila yoki maktab bilan cheklanmaydi. Adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqa ijtimoiy omillar ham shaxs tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ayrim madaniyatlarda farzandlar ota-onalari bilan yaqin munosabatlarga ega va ulardan yo'l-yo'riq izlashadi. Boshqa madaniyatlarda esa yoshlar ko'pincha tengdoshlaridan maslahat so'rashadi.

Tengdoshlaridan yo'l-yo'riq izlagan yoshlar ota-onalarining pand-nasihatini pisand qilmay qo'yishadi. Shunga bunday farzandlar o'smir yoshga yetganida, ota-onalar ularga so'zi o'tmayotganini his qilishlari mumkin. Buning ajablanarli joyi yo'q, sababi farzandlar boshqa bolalar bilan ko'p vaqt o'tkazishsa, ular ota-onasining emas, balki bir-birining tarbiyasini olishadi. Nega farzandlar ota-onalari bilan emas, balki tengdoshlari bilan yaqin munosabatlarga ega bo'lishi osonroq? Quyidagi omillarni ko'rib chiqaylik:

Farzandlar ko'p vaqtini boshqa bolalar bilan o'tkazishsa, bir-biriga bog'lanib qolishadi va ular uchun ota-onalaridan ko'ra tengdoshlarining ko'nglini olish muhimroq bo'lib qolishi mumkin. O'smirlik yoshida esa bu yanada dolzarb muammoga aylanishi ehtimoldan yiroq emas. Farzandlar sinfdoshlarining emas, ota-onalarining ko'nglini olishni muhimroq deb bilishlari kerak. Ko'p oilalarda bolalar maktabdan qaytishganida uyda hech kim bo'lmaydi, chunki ota yoki ona, yo bo'lmasa, ularning ikkovi ham ishda bo'lishi mumkin.

Bolalar o'smirlik davriga qadam tashlashganida o'smirlar madaniyati bo'yicha yashay boshlashadi. Bu madaniyatning kiyinish, gapirish va o'zini tutish borasida o'ziga xos qonun-qoidalari bor. Ko'p hollarda o'smirlar uchun ota-onalarining ular haqidagi fikri emas, tengdoshlarining fikri muhimroqdir.

Ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini va ko'p o'yin-kulgi turlarini asosan yoshlar uchun yaratishadi. Bu tufayli ota-onalar va ularning o'smir yoshdagi farzandlari o'rtasida tushunmovchiliklar yuzaga keladi. «Agarda o'smirlar madaniyati yo'q bo'lib ketganida edi,— deb yozadi psixolog Robert Epsteyn,— milliardlab dollar daromad keltiradigan industriyalarning aksariyati bir zumda kasodga uchragan bo'lardi».

Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: «Bugun men sizlarga buyurgan bu so'zlarni qalbingizda saqlanglar. Ularni farzandlaringizga uyda o'tirganingizda ham,

yoʻlda ketayotganingizda ham, yotganingizda ham, turganingizda ham aytib, qalblariga jo qilinglar»

Farzandlaringizning tengdoshlari ularga doʻst boʻlishi mumkin, lekin ular ota-onadek pand-nasihat bera olmaydi. Lekin ruhingiz tushmasin, sababi mutaxassislarning aytishicha, aksariyat bolalar va oʻsmirlar ota-onasiga hurmat koʻrsatib, ularni mamnun qilishni istaydi. Agar farzandlaringiz bilan yaqin munosabatlarga ega boʻlsangiz, ularga tengdoshlaridan koʻra koʻproq taʼsir qila olasiz.

Maktabda bolalar jamoaga moslashadi va vaqtning maʼlum qismini tengdoshlari davrasida oʻtkazadi. Turli oilaviy muhitda tarbiyalangan oʻquvchilar oʻrtasida doʻstona munosabatlar bilan birga ayrim kelishmovchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Shunday holatlarda oʻqituvchi, ota-ona va mahalla hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-onaning farzand bilan munosabatida quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

- Pedagogik xushmuomalalik — ota-onaning farzand bilan muloyim va hurmat asosida muloqot qilishi;
- Sezgirlik va eʼtibor — bolaning his-tuygʻulari, qiziqishlari va ehtiyojlariga befarq boʻlmaslik;
- Adolatli talabchanlik — meʼyorida talab qoʻyish, ortiqcha qattiqqoʻllikdan saqlanish;
- Muammoli vaziyatlarni hal qilish koʻnikmasi — nizoli holatlarda toʻgʻri yechim topa bilish.

Ayniqsa oʻsmirlik davrida gormonal oʻzgarishlar sababli bolalarda jizzakilik, mustaqillikka intilish kuchayadi. Bunday vaziyatda ota-onaning toʻgʻri yondashuvi kelajakdagi muammolarning oldini olishga yordam beradi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oilada farzand tarbiyasi murakkab va uzluksiz jarayon boʻlib, u ota-onadan mehr-muhabbat, sabr-toqat hamda zarur pedagogik bilimlarni talab qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Axmedov, B. (2021). Oila va maktabgacha taʼlimda tarbiya jarayonlari integratsiyasi. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
2. Karimova, D. (2020). Maktabgacha taʼlimda innovatsion texnologiyalarni joriy etish. TDPU ilmiy jurnali, 3(5), 25–30.
3. Toʻxtasinov, U. (2018). Oʻzbek oilasining pedagogik qadriyatlari. Samarqand.
4. Norqulov, H.D. (2007). Ota-onalarning gʻoyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. Toshkent.
5. Obshchaya i professionalnaya pedagogika. (2005). V.D. Simonenko tahriri ostida. Moskva
6. ZIYO.NET